

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH
VA ISTE'MOLCHILAR
HUQUQLARINI HIMOYA QILISH
QO'MITASINING TOSHKENT
VILOYATI HUDUDiy
BOSHQARMASI**



**COMPETITION PROMOTION
AND CONSUMER PROTECTION
COMMITTEE OF THE REPUBLIC
OF UZBEKISTAN
TASHKENT REGIONAL
DEPARTMENT**

Toshkent vil, Nurafshon sh, Oybek MFY.
O'rikzor ko'chasi 190-uy,
Tel.: (71) 502-01-75, e-mail: tv@antimon.gov.uz

190, O'rikzor street, Tashkent reg,
Nurafshon city, Uzbekistan
Tel.: (71) 502-01-75, e-mail: tv@antimon.gov.uz
000453

**ISHNI KO'RIB CHIQISHNI TUGATISH TO'G'RSIDA
AJRIM**

24-iyun 2025-yil

-sonli ish

Nurafshon sh.

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasining Raqobat, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik yuzasidan ishlarni ko'rib chiqish maxsus komissiyasi 1-tarkibi raisi – Hududiy boshqarma boshlig'i J.Ismailov, komissiya a'zolari – Hududiy boshqarma boshlig'i o'rinbosari –Raqobatni rivojlantirish bo'limi boshlig'i o'rinbosari – I.Narzullayev, Raqobatni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxasisi-Saidov, Raqobatni rivojlantirish bo'limi yetakchi mutaxasisi-S.Esirgapov, xududiy boshqarma bosh yuristkonsulti – A.Xakimov tarkibida tashkil qiladi. ga nisbatan O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 21-moddasi birinchi xatboshisi talablari buzilganligi holati bo'yicha qo'zg'atilgan sonli ishni ko'rib chiqib, quyidagilarni

ANIQLADI:

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan "Sga-Group" MCHJ ishonchli vakili "DAKPATENT LAW FIRM" MCHJ yuridik xizmatlarini ko'rsatuvchi tijorat tashkiloti direktori Xudjanov Dilshod Absalomovichning 2025-yil aprel kuni 88/YUM-sonli murojaati kelib tushgan.

Mazkur murojaatda, "Sga-Group" MCHJ (INN: Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, Chorvoq shaharchasi Do'stlik mahallasi, Do'stlik ko'chasi, 4-uy) 2024-yil 12-iyun sanasida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. "Sga-Group" MCHJ "BOCHKA" brendi ostida qurilish xizmatlari, mehmonxona xizmatlari, taomlar va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlarda shu nom ostida reklama xizmatlarini ko'rsatib kelishi, tadbirkorlik faoliyatida xizmatlar sifati bilan iste'molchilar orasida katta mavqega ega bo'lganligi, "Sga-Group" MCHJ tomonidan birinchi bo'lib fuqarolik muomalasiga kiritilgan "BOCHKA" nomi ostida ko'rsatiladigan qurilish xizmatlari, mehmonxona xizmatlari, taomlar va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlardagi reklama xizmatlari bilan mijozlarning e'tiboriga sazovar bo'lganligi.

"Sga-Group" MCHJ tomonidan "BOCHKA" brendi ostida ko'rsatiladigan qurilish xizmatlari, mehmonxona xizmatlari, taomlar va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlarda reklama xizmatlarini birinchi bo'lib fuqarolik muomilasiga kiritilganligini quyidagilar orqali ma'lum qilgan.

2024-yil 20-dekabrda "Sga-Group" MCHJ va Investor Faxriddin Jamshiddin Fatxitdinovich o'rtasida "BOCHKA RESORT" ko'p qavatli turar joy majmuasini qurilishi maqsadida 04-sonli investitsiya shartnomasi tuzilganligi;

"Sga-Group" MCHJ Instagram ijtimoiy tarmog'i sahifasini 2024-yilning dekabr oyida o'z faoliyatini boshlaganligi, hozirda 3500dan ortiq faol obunachisiga ega ekanligi, shu bugungi kungacha 35dan ortiq postlari joylanib, 2024-yil, 20-dekabr sanasida "BOCHKA RESORT" turar joy majmuasi haqida ilk suratlar va videolari joylanganligi;

"Sga-Group" MCHJning Facebook ijtimoiy tarmog'ida ham "BOCHKA RESORT" nomli shaxsiy sahifasi mavjudligi, ushbu sahifa 2024-yil, 14-dekabr sanasida yaratilganligini keltirib o'tilgan.

Shu bilan birga, tomonidan "BOCHKA" nomiga 2025-yil 10-yanvar sanasida TB 202500132-sonli talabnoma topshirib, tovar belgisi (xizmat ko'rsatish) belgisi sifatida MGU 57565-son guvohnoma, 2025-yil 11-fevral sanasida TB 202500896-sonli talabnoma topshirib, tovar belgisi (xizmat ko'rsatish) belgisi sifatida MGU 57812-son bilan davlat ro'xatidan o'tkazilganligini ma'lum qilib, "Sga-Group" MCHJ ga "BOCHKA" nomini patenlab olganligini, endilikda "BOCHKA" nomi ostida xizmatlarni ko'rsatmaslikni, bu nomdan fuqarolik muomalasida foydalanmaslikni, ijtimoiy tarmoqdagi sahifalardan olib tashlashni talab qilyotganligidan va tomonidan ushbu harakatlari orqali, "Sga-Group" MCHJning tovar moliya bozoriga kirishida hamda "BOCHKA" brendi ostidagi xizmatlarni realizatsiya qilishga imkon bermasdan bir qator to'siqlar va cheklovlar vujudga keltirayotganligidan norozilik bildirib, "Sga-Group" MCHJ tomonidan "BOCHKA RESORT" nomi ostida ko'rsatiladigan xizmatlarini oldin fuqarolik muomalasiga kiritilganligini inobatga olib, ga nisbatan chora ko'rilishida amaliy yordam berish so'ralgan.

sonli ish bo'yicha 17.06.2025-yildagi ishni ko'rib chiqish jarayonida qatnashib MCHJ rahbari tomonidan 2024-yilda 11:03:42:01:01:0116 kadastr raqamli yer uchastkasini xarid qilganligi va 2024-yil may oyidan ovqatlanish majmuasi qurilishini boshlaganligi, aholini xabardor qilish maqsadida 2024-yil iyun oyidan "Bochka" brendi rasman ko'rsatilib, Instagram ijtimoiy tarmog'ida "eskibochka.uz.official" nomi bilan sahifa yaratilganligi va hozirda 113 000 obunachiga ega ekanligi hamda yuridik shaxs bo'lish ehtiyoji yuzaga kelgandan so'ng 2024-yil 12-noyabrda ni davlat ro'yxatidan o'tkazgan holda korxona tashkil qilganligini;

Shuningdek, "Bochka" nomi Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida jamoat ovqatlanish xizmatlari ko'rsatilgan joy sifatida ancha oldindan ishlatilib kelingani, "Bochka" nomi axoliga 20 yildan ortiq tanishligi, "BOCHKA" nomi faqat hudud nomi sifatida mustaxkam ishlatilganligi, ammo hech qanday tashkilot yoki jismoniy shaxsga rasman tegishli bo'lmaganligi. tomonidan "BOCHKA" nomiga 2025-yil 10-yanvar sanasida TB 202500132-sonli talabnoma topshirib, tovar belgisi (xizmat ko'rsatish) belgisi sifatida MGU 57565-son guvohnoma, 2025-yil 11-fevral sanasida TB 202500896-sonli talabnoma topshirib, tovar belgisi (xizmat ko'rsatish) belgisi sifatida MGU 57812-son bilan davlat ro'xatidan o'tkazilib, "BOCHKA" tovar belgisi rasmi bilan to'liq tasdiqlanganligi, hozirgi kunda "Bochka" tovar belgisi bilan qonuniy faoliyat yuritayotganligi hamda hozirgi kunda instagram tarmog'idagi sahifasi bochka.uz.official deb yuritilyotganligini ma'lum qilgan. 2024-yil iyun oyida ushbu sahifa haqiqatda tegishli bo'lgan 77 raqamiga ochilganligi ma'lum bo'lgan.

Shu bilan birga, "Sga-Group" MCHJ ishonchli vakili D.A.Xudjanov tomonidan "Mountain Towers" MCHJning faoliyat turiga qurilish emasligi, 37-klass bo'yicha qurilish ta'mirlash ishlarini olib bormayotganligi. Shuningdek, bochka.uz.official instagram ijtimoiy tarmog'i fuqaroning nomiga ochilganligi hech qanday yuridik shaxs nomiga ochilmaganligi ta'kidlangan.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda 694-sonli "Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining raqobatga ta'sirini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni hamda Insofsiz

raqobatni aniqlash metodikasini tasdiqlash haqida” Qarorining 2-ilovasi 3-bob “Insofsiz raqobat belgilari” 6-bandi quyidagilar insofsiz raqobat belgilari hisoblanishi ko’rsatib o’tilgan;

a) xo’jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhi yoxud uning manfaatlarini ko’zlab boshqa shaxslar tomonidan ularning iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo’lishga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo’lgan hamda boshqa xo’jalik yurituvchi subyektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo’lgan harakatlarini sodir etish, shu jumladan:

avval fuqarolik muomalasiga kiritilgan tovar, ish va xizmatlarning (keyingi o’rinlarda - tovar) tashqi bezatilishi va shakli, nomi, tamgalanishi, etiketkasi, o’rovi, ranglar uyg’unligini takrorlash orqali raqobatchi xo’jalik yurituvchi subyekt tomonidan tovarni fuqarolik muomalasiga kiritish taqiqlanishi belgilangan.

“Raqobat to’g’risida”gi Qonunining 21-moddasi, 1-xatboshisi Xo’jalik yurituvchi subyektlar yoki ularning manfaatlarini ko’zlab boshqa shaxslar tomonidan raqobatchilarga nisbatan insofsiz raqobatni amalga oshirish, shu jumladan quyidagi harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi ya’ni raqobatchini obro’sizlantirish, ya’ni raqobatchi xo’jalik yurituvchi subyektning faoliyatiga salbiy ta’sir ko’rsatishi yoki uning ishchanlik obro’siga putur yetkazishi mumkin bo’lgan, u sotuvga taklif qilayotgan tovarning sifati va iste’mol xossalari to’g’risida, mazkur tovarni tayyorlash hamda undan foydalanish usullari va sharoitlari haqida, undan foydalanishdan kutilayotgan natijalar to’g’risida, tovarning muayyan maqsadlarga yaroqliligi haqida, tovarni sotuvga taklif etish shartlari, shu jumladan uning narxi to’g’risida yolg’on, noaniq yoki buzib ko’rsatilgan ma’lumotlarni tarqatish taqiqlanishi keltirib o’tilgan.

Maxsus komissiya mazkur ishni ko’rib chiqishda mavjud ma’lumotlarni hamda qo’shimcha taqdim qilingan hujjatlarni o’rganib chiqib, muhokamadan so’ng “Mountain Towers” MCHJ tomonidan O’zbekiston Respublikasining “Raqobat to’g’risida”gi Qonunining 21-moddasi birinchi xatboshisi talablari buzilishi vakolatli davlat organi tomonidan ko’rib chiqilayotgan qonunchilik buzilishi to’g’risidagi ish qonunchilik buzilishi holatlari tasdiqlanmaganligi munosabati ishni ko’rib chiqishni tugatish to’g’risida xulosaga keldi.

Yuqoridagi bayon etilganlarga hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2005 yildagi 225-sonli qarori bilan tasdiqlangan Raqobat, iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish va reklama to’g’risidagi qonunchilikni buzganlik uchun ish qo’zg’atish va uni ko’rib chiqish tartibi to’g’risidagi Nizomning 24-bandlariga asosan maxsus komissiya

AJRIM CHIQRADI:

1. _____ ga nisbatan 06.07.2025 yilda qo’zg’atilgan _____-sonli ish “Raqobat to’g’risida”gi Qonunining 21-moddasi birinchi xatboshisi talablari buzilish holatlari tasdiqlanmaganligi munosabati bilan tugatilsin.

Maxsus komissiya

Komissiya a’zolari



J. Ismailov

I. Narzullayev

A. Xakimov

S. Saidov

S. Esirgapov